


O`zbekiston Respublikasida qurilish ishlari

(2019 yil yanvar-dekabr)

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida O`zbekiston Respublikasida jami **68 854,4** mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilib, o`sinh sur`ati 2018 yilga nisbatan **119,0** %ni tashkil etdi.




2019 yil yanvar-dekabr oylarida jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **16 904,6** mlrd. so`mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2018 yilga nisbatan **8,5** % ga ko`p bajarilgan bo`lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2018 yilning mos davri ko`rsatkich darajasidan **2,2** % punktga kamayib, **24,6** % ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi


(mlrd. so`m, ulushi %da)



Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2019 yil yanvar-dekabrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **54,6 %** to'g'ri kelib, 2018 yildagi ko'rsatkichga nisbatan **4,6 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2018 yilning mos davriga nisbatan **129,5 %**ni tashkil etgan holda **37 593,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **2,5 %** punktga kamayib, **20,8 %**ni tashkil etdi va **14 356,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2018 yilga nisbatan **108,3 %**ni tashkil etdi.







Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **3 899,2** mlrd. so'm yoki 2018 yilning yanvar-dekabriga nisbatan **126,4** % qurilish ishlari bajarildi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **64 955,2** mlrd. so'm ishlar bajarilib, o'sish sur'ati **118,5** %ni tashkil etdi. Ularning respublikadagi tutgan ulushi mos ravishda **5,7** % va **94,3** %ni tashkil etdi.




Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruktsiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi.




Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 75,6 % yoki 52043,2 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarini yaratishga qaratilgan



Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 14 888,8 mlrd. so'm ishlar bajarildi, yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 88,1 % tashkil etdi



Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 24 597,2 mlrd. so'm, yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 65,4 % tashkil etdi



Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga 12 557,2 mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 87,5 % tashkil etdi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2019 yil yanvar-dekabr

49 941,3 mlrd. so'm	9 658,7 mlrd. so'm	9 254,4 mlrd. so'm
Bino va inshootlar qurish bo'yicha qurilish ishlari	Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
72,5 %	14,0 %	13,5 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.


Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **21,6 %**ni tashkil etib, 2018 yildagi ko'rsatkichga nisbatan **3,8 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2018 yildagi ko'rsatkichga nisbatan **6,8 %** punktga ko'payib, **49,7 %** ni tashkil etdi.



Bino va inshootlar qurilishi

jamiga nisbatan ulushi % da



● Yirik qurilish tashkilotlar

● Kichik korxonalar va mikrofirmalar

● Norasmiy sektor


Norasmiy sektorning ulushi esa 2018 yildagi ko'rsatkichga nisbatan **3,0 %** punktga kamayib, **28,7 %**ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **45,8 %** ni tashkil etdi va 2018 yilga nisbatan **5,6 %** punktga ko'paydi.



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

jamiga nisbatan ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlar



Kichik korxonalar va mikrofirmalar




Norasmiy sektor

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **54,0 %** (**5,3 %** punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi **0,2 %** ni (**0,3 %** punktga kamayish) tashkil etdi.




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

jamiga nisbatan ulushi % da



● Yirik qurilish tashkilotlari

● Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2018 yilga nisbatan **2,6 %** punktga kamaydi va **18,1 %**ni tashkil etdi. Qolgan **81,9 %** kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2018 yilga nisbatan **2,6 %** punktga ko'paydi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

(2019 yil yanvar-dekabr)

(mlrd. so'm)


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:		
		Binolar va inshootlar qurilishi	Fuqarolik qurilish obyektlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
O'zbekiston Respublikasi*	68854,4	49941,3	9658,7	9254,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3202,8	2174,1	418,4	610,3
viloyatlar:				
Andijon	3839,6	2877,1	334,4	628,1
Buxoro	4334,6	2882,4	780,4	671,8
Jizzax	2119,6	1620,9	302,8	195,9
Qashqadaryo	4665,4	3473,1	569,6	622,7
Navoiy	3674,0	2565,3	452,0	656,7
Namangan	3419,0	2447,6	333,1	638,3
Samarqand	4096,8	3454,7	355,7	286,4
Surxondaryo	3959,7	2615,0	1123,4	221,3
Sirdaryo	1451,0	1054,9	248,0	148,1
Toshkent	4879,7	3600,0	576,1	703,6
Farg'ona	4065,5	3068,4	521,4	475,7
Xorazm	2612,3	2056,4	370,5	185,4
Toshkent sh.	15418,7	8935,7	3272,9	3210,1

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Hududlar bo'yicha qurilish ishlari hajmi

mlrd. so'm



 2018 yil
yanvar-dekabr

 2019 yil
yanvar-dekabr

Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

(2019 yil yanvar-dekabr)

(mlrd. so'm)

	Qurilish ishlari hajmi	O'sish sur'ati, foizda	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya
O'zbekiston * Respublikasi	68854,4	119,0	52043,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3202,8	123,8	2291,0
viloyatlar:			
Andijon	3839,6	107,1	2681,6
Buxoro	4334,6	114,1	2560,5
Jizzax	2119,6	123,9	1663,3
Qashqadaryo	4665,4	110,2	3414,0
Navoiy	3674,0	133,0	2685,8
Namangan	3419,0	138,7	2505,0
Samarqand	4096,8	114,1	3445,5
Surxondaryo	3959,7	120,6	3356,7
Sirdaryo	1451,0	119,5	966,1
Toshkent	4879,7	135,9	3599,8
Farg'ona	4065,5	116,0	2742,2
Xorazm	2612,3	124,9	2142,7
Toshkent sh.	15418,7	128,5	10873,2

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Hududlar kesimida eng yuqori o`shish sur`atlari qayd etilgan qurilish ishlari

Namangan viloyati (138,7 %):

- Namangan shahrining Uychi va Yangiobod ko`chalarida ta`mirlash ishlari olib borilmoqda;
- Viloyat bo`yicha yuqori kuchlanishdagi elektr uzatish liniyasi qurish ishlari bajarilmoqda.

Toshkent viloyati (135,9 %):

- Toshkent viloyati Qibray tumanidagi namunaviy yo`llarni rekonstruktsiya qilish ishlari;
- Toshkent shahar Bektemir tumani va Toshkent viloyati Bo`stonliq tumani yo`nalishidagi yo`llarni ta`mirlash ishlari;
- Kollektorlarni ta`mirlash va tiklash ishlari;
- Irrigatsiya tizimi suv tezligini sunduruvchi inshootlar qurish .

Navoiy viloyati (133,0 %):

- "Ko'kpatas " va "Daugiztau" konlarining og`ir rudalaridan oltin qazib olish texnologiyasini takomillashtirish, "Auminzo-Amantay" oltin ma'danlari koni (5-GMZ) qurilishi (I-II bosqich), "Amudaryo-Zarafshon" suv yo'lining 3-yo`nalishi bo`yicha nasos stansiyasi rekonstruktsiyasi;

- "Samarqand-Buxoro-Turkmanboshi" M-37 avtomobil yo`lini ta`mirlash;

- Karmana, Xatirchi, Navbahor, Qiziltepa tumanlarida kanallar, drenajlar va kollektorlar qazish ishlari.

Toshkent shahar (128,5 %):

- Ko'prik va "Yunusobod" metro liniyasi qurilishi, elektr poyezdlar uchun halqa temir yo'l qurilishi;

- Toshkent metropolitenining "Sergeli" liniyasi qurilishi, Mahtumquli (Taraqqiyot) ko'chalari va Ohangaron yo'li kesishmasida yo'l o'tkazgich

qurilishi, yer usti halqa liniyasini qurish ishlari amalga oshirildi;

- “Toshkent City” va “Olmazor City”lar qurilishi;
- Sobiq Toshkent chinni zavodi hududida “Yangi Olmazor” turar-joy majmuasi qurilishi;
- “Oloy” turar-joy binosi qurilishi.
- “Toshkent - Sharqiy” aerodromi bazasida zamonaviy fuqaro aeroporti majmuasi qurilishi;
- “Navro`z” bog`i qurilishi;
- “O`zbekfilm” bino va inshootlarini rekonstruksiya qilish;
- Xalqaro Islom madaniyati markazi qurilishi.

Xorazm viloyati (124,9 %):

- Xorazm viloyati bo'yicha VL-04-06 kv elektor tarmoqlarini modernizatsiyalash obykti ishlari;
- Mahalliy elektor uzatish va telekommunikatsiya tarmoqlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari;
- Urganch shahridagi Olimpiya stadionini rekonstruksiya qilish ishlari;
- Urganch shahridagi viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazini rekonstruksiya qilish ishlari.


Jizzax viloyati (123,9 %):

- Namunaviy uy joylarni elektr energiya bilan ta'minlash uchun elektr kommunikatsiyalarini qurish ishlari;
- Zafarobod tumanida kollektor drenaj tarmoqlarini rekonstruksiya qilish ishlari;
- Paxtakor tumanida “Yur 21” kanalini rekonstruksiya qilish ishlari.



Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

jamiga nisbatan ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng kam ulush Jizzax (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **2,0** %i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **89,4** %), Andijon (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **3,0** % yoki 2018 yilga



nisbatan **99,4 %**) va Samarqand viloyatlariga (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **4,2 %**, yoki 2018 yilga nisbatan **3,2** marta ko'p) to'g'ri keldi.

O`zbekiston Respublikasi
Davlat statistika qo`mitasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
boshqarmasi

Aloqa telefoni: (71) 230-80-56